

“INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI”

Abdaliyeva Xurshida

Toshkent viloyati Bekobod tumani

43- maktab informatika fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Informatika fanining amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullardan foydalanish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: interfaol o'qitish, interfaol metod, loyihalash metodi, dialogli o'qitish

Ma'lumki, “Informatika va axborot texnologiyalari” fani o'z xususiyatiga ko'ra fanlararo xarakterga ega bo'lgan kompleksli ilmiy yo'nalish hisoblanib, boshqa ilmiy yo'nalishlarni rivojlantirishda muhim ro'l o'ynaydi. Shuning uchun u fan-texnika va ta'lim tizimlarida integrativ funksiyani bajaruvchi fan sifatida tan olinadi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan yillaridan buyon mamlakatimizda axborotlashtirish va ta'limda axborot - kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash muammolariga davlatimiz tomonidan alohida e'tibor qaratilmoqda.

Sivilizatsiyaning asosiy xususiyati - inson faoliyatining barcha tarmoqlarida axborot ishlab chiqarish, iste'mol qilish va to'planishining o'sishidir. Bizning asrimiz uchun - mashina, elektr, aviatsiya, yadro energiyasi, kosmonavtika, elektron texnologiya - xarakterli bo'lib ilm -fan, texnika va yangi texnologiyalarning misli ko'rilmagan tezligidir. Shunday qilib, matbaa ixtiro qilinganidan (XV asr o'rtalari) radio ixtirosigacha (1895), taxminan 440 yil o'tdi, radio va televidenie ixtirosi o'rtasida esa taxminan 30 yil. Tranzistor ixtirosi bilan integral mikrosxemalar orasida atigi 5 yil vaqt oralig'i bor edi. XVII asrdan boshlab Ilmiy axborot to'plash sohasida uning hajmi har 10-15 yilda taxminan ikki baravar ko'paygan.

Keyingi vaqtlarda pedagogik texnologiya masalasi mutaxassislar tomonidan alohida tadqiqot ob'yekti sifatida o'rganila boshlandi. Bunda pedagogik texnologiya ta'lim, o'qitish jarayoni maqsadiga va shaxs barkamolligiga erishtirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat samardorligini oshirishning tizimlashtirilgan, loyihalashtirilgan vosita va usullari sifatida talqin qilinadi. Fanlarni o'qitish o'qituvchidan mantiqiy usullar asosida pedagogik texnologiyalardan foydalanishni talab etadi. Chunki fan asoslarini o'zlashtirish uchun o'quvchi abstrakt tushuncha, (kategoriya)larning mazmun, mohiyatini teran anglab yetishi kerakligi, bunga esa o'qituvchi, eng avvalo, dars jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni mantiqiy usullardan mohirlik bilan foydalangani holda qo'llay bilishi orqali erishadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullar asosida o'qituvchining yangi bilimlarning o'quvchilar tomonidan muayyan o'quv topshiriq, masalalarni yechishi bo'yicha muammoviy vaziyatlarni tashkil qilishi va shu yo'nalishda o'quv jarayonini boshqarishi tamoyili yotadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullardan foydalanish o'quvchilarda fanga bo'lgan qiziqishini hosil qilishning zaruriy sharti

hisoblanadi. Chunki mazkur usullar talabalarning diqqatini qo'yilgan muammolarning mohiyat-ahamiyatini anglab olishga va ularning yechimi ustida mustaqil, tanqidiy muhokama yuritishga yo'naltiradi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish uchun bir qator interaktiv usullardan foydalanish mumkin. Bu usullar qo'yilgan muammoning yechimini topishga qaratilgan bo'lib, bunda mantiqiy usullar, xususan, tushunchani ta'riflash va bo'lish, umumlashtirish va chegaralash, savollar tuzish, bahs va boshqalar nazariy metodologik mavqeini egallaydi.

Ma'lumki, "Informatika va axborot texnologiyalari" o'quv predmetining asosiy vazifasi o'quvchilarni zamonaviy axborot texnologiyalarining ba'zi bir umumiy g'oyalari bilan tanishtirish, axborot texnologiyalarining amaliyotdagi tatbiqini va kompyuterlarning zamonaviy hayotdagi o'rnini ochib berishdan iborat. Lekin, didaktik tamoyillarni hisobga olgan holda, o'quvchilarga nafaqat faktlarning qat'iy ilmiy bayonini berish, balki o'qitishning turli qiziqarli metodlarini ham qo'llash lozim.

Interfaol usullardan foydalanib o'qitishda o'quv maqsadlaridan tashqari quyidagi jihatlar ham muhimdir:

- guruhdagi o'quvchilarning o'zaro muloqotlari jarayonida, boshqalarning qobiliyatlarini tushinib yetish;
- boshqalar bilan o'zaro muloqotda bo'lish va ularning yordamiga muhtojlik zaruratining shakllanishi;
- o'quvchilarda musobaqa, raqobatchilik kayfiyatlarini rivojlantirish.

Bugungi kunda Prezidentimiz tomonidan intellektual salohiyatga ega, ilm- fanning zamonaviy yutuqlari asosida mustaqil fikr va mushohada yurita oladigan, mustaqil ravishda zaruriy axborotlarni izlab topadigan va ulardan tahlil asosida zaruriylarini ajratib oladigan, barcha bilan muloqatga kirisha oladigan, ta'lim muassacasida olgan bilimlarini hayotiy ehtiyojlarida qo'llay oladigan yoshlarni tarbiyalab kamol topishlarida katta e'tibor qaratgan. Buning uchun esa o'quvchilarimizni boshlang'ich sinflardan boshlab bunga tayyorlab borish kerak. Ya'ni, boshlang'ich fanlar bo'yicha chuqur bilim berish, chet tillarini puxta o'rgatish va axborot texnologiyalari bo'yicha kerakli zarur malakalarni shakllantirib borish lozim.

Ma'lumki, hozirgi kunda axborotlar olamida yashayapmiz. O'qishda ham, ishda ham, kundalik faoliyatda ham kompyuter texnika vositalariga duch kelamiz va bularsiz bugungi kunimizni tasavvur ham qila olmaymiz. SHunday ekan o'quvchilarimizga informatika fanidan chuqur bilim berish, kompyuter va uning boshqa texnik vositalaridan to'g'ri va oqilona foydalanishga o'rgatish kerak. O'quvchilar esa zaruriy axborotga ega bo'lish, ularni izlab topish, undan keraklisini ajratib olish va foydalanishni o'rganishi kerak.

Shu bilan birgalikda o'rganilgan bilim, ko'nikma va malakalaridan kundalik hayotlarida uchraydigan muammolarni hal etishda foydalana olishlari uchun shakllantirilishi zarur. SHunga ko'ra, bu vazifalarni ta'lim muassasida o'quvchilarni o'quv predmetlarini o'rganish jarayonida zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarga ega

qilish bilan birgalikda ularni hayotiy ehtiyojlarida qo'llay oladigan holda tayyorlash kerak. Buning uchun kompetentlik yondoshuvga asoslangan holda o'qitish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yuldashev U.Yu., boqiev R.R. Informatika o'qitish metodikasi. – T.: Talqin, 2005
2. Levin A. Samouchitel raboti na kompyutere. – SPb.: Piter, 2003.
3. kreynak, djoy. Ensiklopediya Internet [Per. s angl. Ye. kleymenova]. – SPb.: Piter, 2003.

